

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK TADBIRKORLIK

*Rustamov Dilshodjon Shaydullo o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Xizmat ko’rsatish sohasida kichik tadbirkorlik korxonalari o’ziga xos rol o’ynaydi. Bu korxonalar bozor xizmatlarini ko’rsatib iste’molchilar ehtiyojlarini qondirib keladilar. Maqolada xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ko’rsatilgan xizmatlar dinamikasi, hududlar bo'yicha xizmatlar hajmi ko’rsatkichlari tahlil etilgan. SHuningdek, YaIMda xizmatlar ulushi ko’rsatilgan. Sohani rivojlanishida ayrim muammolar sanab o’tilgan, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: raqobat, kichik tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, sub’ektlari, raqobat, xizmat ko’rsatish vaqt, aholi farovonligi, YaIMdagagi ulush, hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik.

Kirish

Hozirgi raqobat sharoiti xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etishning yangicha yondashuvini taqozo etadi. Bozor sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar turli mulkchilik shakllari, to'liq iqtisodiy mustaqillik va o'zaro raqobat asosida faoliyat yuritadi. Bularning barchasi bozorni boshqarish usullarining moslashuvchan kombinatsiyasini, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezda moslasha oladigan va raqobatchilardan ustun bo'ladigan xizmat ko'rsatishning tashkiliy chora-tadbirlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ilmiy tadqiqotlarda asosiy e'tibor xizmat ko'rsatuvchi kichik tadbirkorlik korxonalarida marketing, sotish, yashab qolish, raqobatbardoshlik va rentabellik muammolariga qaratiladi. Bularning barchasi raqobat muhitida mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish muammolarini har tomonlama o'rganishni va bozor tipidagi mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangicha yondashuvini talab qiladi.

Xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ko’plab chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2021 — 2023 yillarda O’zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida xizmatlar ko’rsatish hajmi qariyb 20 foizga o’sdi [1].

Raqobat muhitida kichik tadbirkorlik korxonalarida xizmatlarni tashkil etish muammosining murakkabligi va yangiligi, yetarlicha amaliy bozor tajribasining yo‘qligi ushbu jarayonning mohiyati va mazmunini belgilashda ham, uni amalga

oshirish shakllarini aniqlashda ham turli yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu masalalarni nazariy jihatdan ishlab chiqishda xizmat ko‘rsatish korxonalarida aholiga xizmat ko‘rsatishning samarali tashkiliy modelini ishlab chiqish nuqtai nazaridan prinsipial ahamiyatga ega. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda bu muammolar faqat ularning namoyon bo‘lishining individual jihatlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Raqobat sharoitida xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ko‘plab masalalari munozarali bo‘lib, qo‘srimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik korxonalarining tashkiliy faoliyati muammolari ko‘p qirrali xususiyatga egadir. Chunki ularga xizmat ko‘rsatish korxonalarining tashqi va ichki muhitiga ta’sir qiladi. Bu sharoitda iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishning an’anaviy tashkiliy vazifalari yangi mazmunga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, *tadbirkorlik faoliyati* (*tadbirkorlik*) – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o’zi tavakkal qilib va o’z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari (*tadbirkorlik sub’ektlari*) belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

So’nggi yillarda xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari faoliyatida ma’lum hajmda xizmatlar ko‘rsatildi.

1-jadval

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ko‘rsatkichlari

Davrlar	Hajmi, mlrd so’mda	O’sish sur’ati, %
2019 yil	103 106,5	107,7
2020 yil	114 052,7	110,6
2021 yil	147 061,6	128,9
2022 yil	181 245,0	123,2
2023 yil	224 443,7	123,8

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 224 443,7 mlrd. so’mga teng bo‘lib, bozor xizmatlarining umumiylajmiy hajmida ularning ulushi 47,7 % ni, shu jumladan 21,5 % kichik korxona va mikrofirmalardan iboratdir. Hududlar orasida Toshkent shahrining xizmatlar sohasida band bo’lgan kichik tadbirkorlik hajmidagi ulushi 32,9 % ga yetdi.

2-jadval**Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik**

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'mda	O'sish sur'ati, %
Toshkent shahri	73 930,7	112,9
Toshkent	22 148,6	111,0
Samarqand	19 140,4	111,0
Farg'on'a	17 798,9	112,3
Andijon	14 227,0	110,1
Qashqdaryo	13 068,7	109,6
Buxoro	11 831,0	110,0
Namangan	11 829,1	111,2
Surxondaryo	9 979,1	110,4
Xorazm	7 725,1	107,6
Qoraqolpog'iston Respublikasi	6 613,9	113,9
Navoiy	6 570,8	110,2
Jizzax	6 469,2	118,3
Sirdaryo	3 111,2	108,3

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, kichik tadbirkorlik sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yiliga nisbatan o'sish dinamikasida bo'lган.

Xizmatlar sohasi sababli butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotning asosi shakllanmoqda, mazkur soha talab o'zgarishiga moyillligi kam bo'lib, zamonaviy texnologiyalarga birinchi bo'lib javob beradi, shu bilan birga uning jahon YaIMdagi ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Xizmatlar sohasi YaIMga va yangi ish o'rirlari yaratishga salmoqli hissa qo'shishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirish, sarmoyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

3-jadval**Xizmatlarning YaIMdagi ulushi**

	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Ulushi, % da	39,6	39,7	39,6	41,6	43,4

2023 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlarning YaIMdagi ulushi 43,4 % ni tashkil etdi. 2019 yilning mos davriga nisbatan bu ko'rsatkich 3,8 foiz birligiga oshdi.

Ma'lumki, *xizmatlar* bu – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ning holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar oldi-sotdi ob'ekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lган (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 470 286,5 mlrd. so'mga yetdi. 2022 yilning (116,3 %) o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etdi, hajmi esa 103 395,5 mlrd. so'mga oshdi.

Hisobot davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar (25 514,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (24 492,1 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (20 846,2 mlrd. so'mga) va aloqa xizmatlari (2022 yilga nisbatan 7 718,5 mlrd. so'mga) hajmi alohida ahamiyatli bo'ldi.

Xizmatlar sohasida kichik biznes sub'ektlari faoliyatini tahlillari shuni ko'rsatadiki, sohada e'tiborga molik yutuqlar bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklar ham bor. Jumladan – xizmatlar ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik korxonalarida eksportni qo'llab-quvvatlash jarayonidagi muammolar[6], kichik tadbirkorlik korxonalarida zamonaviy boshqarish usullarini qo'llash, zamonaviy tashqi muhitga moslashuvchan strategiyalardan foydalanishga ehtiyojni mavjudligi [5;9], kichik tadbirkorlikni boshqarishda innovatsion yondashuvni zarurligi, turli risklarni yuzaga kelishi [3;4], ayrim hududlarda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy salohiyat darajasini pastligi [2;8], xizmatlar tanlovini amalga oshirishda xizmatlar turini kamligi [11]; texnologik taraqqiyotni o'zlashtirishida moddiy xarajatlarni qimmatligi; axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar [7;10] va boshqa shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining roli quyidagi shartlar bilan belgilanadi: xizmat ko'rsatish sohasida doimiy ravishda yangi ish o'rinnari yaratilmoqda; xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirmoqda; bu soha hisobiga uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatishga ketadigan vaqt qisqaradi, bu esa aholi turmush sifatini yaxshilaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni taklif etamiz: kichik tadbirkorlik sub'ektlarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish; aholiga individual xizmatlar ko'rsatishni toifalashtirish; xizmat ko'rsatish jarayonida individual ehtiyojlarni qondirishni aks ettiruvchi maishiy xizmatlarning iste'mol xususiyatlarining majmuuni shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish; kichik tadbirkorlik ub'ektlarida xizmat ko'rsatishda sifatni boshqarish jarayonini rejalashtirish; xizmatlar ko'rsatish uchun javobgarlikni taqsimlash, me'yoriy-texnik hujjatlarni tasdiqlash, iste'molchilarining qoniqish darajasini baholash va qayd etish ishlarini samarali tashkillashtirish va boshqa shu kabilalar.

Foydalilanlgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январда қабул қилган “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5840284>
2. Ergasheva Fotima Ibragimovna, & Ismoilova Gulnoza Ravshanjonovna. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUB'YEKTALARINING UMUMIY IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH DINAMIKASI. Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 189–195. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11068373>.
<https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.11068373.svg>.
3. Ergasheva Fotimakhon Ibragimovna. (2023). Enterprises The Nature Of Uncertainty And Risk In The Activity. *Miasto Przyszlosci*, 42, 319–322. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2070>
4. Ergasheva, F. (2023). RISKS IN BUSINESS ACTIVITIES AND THE REASONS FOR THEIR INCREASE. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 3, Выпуск 12, сс. 56–59). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10317457>
5. Ergasheva, F., & Rustamov, D. (2024). KORXONALARDA QARORLAR BAJARILISHI NAZORATI: MOHIYAT, TAMOYIL, MEZON VA YOLLAR. В ilm-fan (Т. 2, Выпуск 2, сс. 82–86). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10571040>
6. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
7. Дедажанов Б.Н., & Эргашева Ф.И. (2021). РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ. Экономика и социум, (1-1 (80)), 543-549.
8. Эргашева Фотимахон Ибрагимовна, & Охунжонова Мадина Исоқжоновна. (2024). КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ. Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 196–204. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/5322/10475>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11068406>.
9. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИНИНГ РИВОЖЛANIШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).
10. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
11. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-obsluzhivaniya-naseleniya-na-predpriatiyakh-sfery-servisa-v-usloviyakh-konkur>